

BUXORO VA SOVET DAVLATINING SIYOSIY MUNOSABATLARI. BUXORO XALQ
SHO'ROLAR JUMHURIYATI TASHKIL TOPISHIDA JADIDPARVAR OLIMLARIMIZ
O'RNI.

Eshqulova Gulmira Shokirovna

Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.n. G'.Temirov

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Sharq va musulmon dunyosida boshlangan milliy uyg'onish jarayoni mustamlaka va yarim mustamlaka davlatlarida ozodlik uchun kurash g'oyalarining keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Jumladan, asrlar davomida monarxiya boshqaruvi tartibi hukmronlik qilib kelayotgan Buxoro amirligida ham taraqqiyatparvarlik harakati keng quloch yoyib, Buxoro jadidchiligi zaminida ilg'or fikr va g'oyalar targ'ib qilina boshlandi. Jadidchilik harakatiga ziyolilar, ilg'or fikrli savdogar va diniy ulamolar birlashib, mamlakatni zamonaviy taraqqiyot bosqichiga olib chiqishdek ezgu istak va orzular sari zimdan va ochiqcha kurash boshladilar.⁴⁰

Buxoro jadidchlik harakati o'ziga xos bir tarixiy sharoitda bir tarafdan, Rossiya musulmonlarini asriy uyqudan uyg'otgan Ismoilbey G'asprali, boshqa tarafdan Markaziy Osiyo turkiy tamaddunining o'ziga xos dinamiklaridan ta'sirlanaroq maydonga kela boshladi. (Bu tuproqlarda tarixda ikki marta – X-XI asrlar hamda XIV-XV asrlarda Uyg'onish davri yashangan hamda mintaqalarda insoniyatga Farobiy, Beruniy, al-Farg'onyiy, ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Bobur kabi Uyg'onish davri titanlarini yetkazib bergen edi). Buxoro uzoq o'tmishda ham, yaqin tarixda ham Samarcand, Yassi, Toshkent, Ko'hna Urganch, Xiva, Andijon, Qo'qon, O'sh kabi Markaziy Osiyo tamaddunining beshiklaridan biri bo'lib, mintaqalarda xalqlarini o'rta asr mustabid boshqaruv tizimiga va mustamlaka istibdodiga qarshi kurashga qo'zg'alishining muhim halqasini tashkil etgan.

Buxoro inqilobining g'alabasi hamda Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining tashkil etilishi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixidagi muhim va qutlug' hodisadir. Turkistondagi barcha qardosh xalqlar uchun umumiyligi tarix va siyosiy madaniyatning ajralmas parchasi bo'lgan Buxoro Xalq Jumhuriyatining tashkil etilishi bu mintaqada azaldan tili, madaniyati, dini va taqdiri bir bo'lgan o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, tojik kabi xalqlarning milliy-ozodlik kurashining eng yuqori cho'qqisi bo'ldi. Bu jumhuriyat qisqa muddat yashaganiga qaramay, u o'lka xalqlarining tarixida o'chmas iz qoldirdi hamda bugungi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Qoraqalpog'iston Respublikalarining tamal toshlarini qo'ygan holda tarixga qorishdi.

⁴⁰ Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining 100 Yillig'i
Xalqaro Simpozium Maqolalari.2020

Ma'lumki, Turkistonda 1924-yil oktabr oyida o'tkazilgan "milliy-davlat chegaralanishi" tufayli Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari o'rnida O'zbekiston, Turkmaniston respublikalari, shuningdek, Qirg'iziston (keyin Qozog'iston) va Qora-qirg'iziston (keyin Qirg'iziston), Tojikiston Avtonom Respublikalari tuzildi. Butun Markaziy Osiyo va musulmon Sharqining milliy mujodala tarixida o'chmas iz qoldirgan Buxoro inqilobi va Buxoro Xalq Jumhuriyatining harakatlantiruvchi kuchi jadidlar edilar. Ular orasida Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev (Osman Kocaoğlu), Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Otaulla Xo'jayev, Zaki Validiy (To'g'on), Sadriddin Ayniy kabi tarixiy shaxsiyatlarning o'rni va roli beqiyosdir. Buxoro inqilobi yo'lboshchilari hamda ijtimoiy-siyosiy fenomen o'laroq bu inqilobning o'zi xalqimizning bundan yuz yil burun zulm va istibdodga, mahdudlik va teskarichilikka qarshi bosh ko'tarib, "Ark" qal'asini olish bilan o'rta asrcha hokimi mutlaqlikka chek qo'yib, mintqa xalqlari tarixida yangi davrni boshlab bergen edi.⁴¹

Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati bor-yo'g'i to'rt yil yashaganiga qaramasdan qardosh va taqdirdosh xalqlarning erk, ozodlik, demokratiya va taraqqiyot uchun kurashi tarixida alohida o'rin tutadigan siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdilar. Buxoro inqilobchilari faqat buzish va yiqitishni uddalaydigan no'noq siyosatchilar emas edilar, ular dunyoning Berlin, Istanbul, Qozon, Moskva, Ufa, Bombay kabi taraqqiy etgan shahrlarida ta'lim olgan yosh, shijoatli va bilimdon siyosatchilar edilar. Ular xalq ommasining faol qo'llabquvvatlashi natijasida qisqa muddatda davlatda muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar o'tkazdilar, madaniy-oqartuv jabhasida ham yirik muvaffaqiyatga erishdilar. Buxoro Xalq Jumhuriyatining o'rtacha yoshi 29 yosh bo'lgan Hukumati qisqa muddatda o'rta asr monarxiyasi o'rnida hur, demokratik va iqtisodi barqaror jumhuriyatni barpo eta oldilar.

"Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati (BXSHJ) bolsheviklarning zulmi va bosimi ostida bo'lishiga qaramay, o'z mavjudiyatining birinchi kunlaridanoq Onado'ludagi turk milliy-ozodlik kurashiga katta xahrixohlik bilan qaragani ma'lum va Mustafo Kamol poshoning Moskvadagi vakili Bekir Sami Bey Sovet hukumatining mutassadilari V. Lenin, Chicherin, Karaxanlardan moliyaviy yordam so'raganida Sho'ro Hukumatida bunday mablag' bo'lmagani uchun, Mustafo Kamol hukumatiga BXSHJ hukumatida avval moliya noziri, keyin esa Markaziy Ijroiya Qo'mita Raisi lavozimida ishlagan Usmonxo'ja Po'latXo'jayev Buxoro Hukumati hisobidan 100 mln. oltin mablag' bilan moddiy yordam ko'rsatgan. Ushbu mablag'ning asosiy qismi Moskvada qolib ketadi va faqat 11 million oltin tanga Mustafo Kamol hukumatiga quroq va naqd oltin shaklida yetib borgani tarixiy manbalardan ma'lumdir"⁴². Buxoro inqilobining g'alabasi hamda Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining tashkil etilishi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixidagi muhim va qutlug' hodisadir.

⁴¹ Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining 100 Yillig'i
Xalqaro Simpozium Maqolalari.2020. Prof. Dr. Sulaymon INOYATOV

⁴² Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining 100 Yillig'i
Xalqaro Simpozium Maqolalari.2020